2026-yil
9(1)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA FANLARI
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(1)-son

UDK 159.923.2:159.942

Azizova Sabina Fattaxovna,
"LOGOSTUDIO" mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori

EMOTSIONAL INTELLEKT FENOMENINI O'RGANISHGA DOIR ILMIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada emotsional intellekt fenomenini o'rganishga doir asosiy ilmiy yondashuvlar nazariy-qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy e'tibori emotsional intellektning psixologik konstrukt sifatidagi mazmuni, tarkibiy tuzilishi, nazariy chegaralari va uni diagnostika qilish tamoyillarining o'zaro muvofiqligini aniqlashga qaratilgan. Unda P. Salovey, J.D. Mayer va D.R. Carusoning qobiliyat modeli, R. Bar-On va D. Goleman tomonidan ishlab chiqilgan aralash yondashuvlar, K.V. Petridesning trait emotsional intellekt konsepsiyasi hamda D.V. Lyusinning emotsional intellekt modeli mazmuniy va metodologik jihatdan qiyoslanadi. Shuningdek, O'zbekiston psixologiyasida emotsional intellekt muammosining o'rganilish holati, xususan, talabalik davri, kasbiy shakllanish va turli faoliyat subyektlarida emotsional intellektning namoyon bo'lishiga bag'ishlangan tadqiqotlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari emotsional intellekt yagona mazmun va metodologik asosga ega konstrukt emasligini, uning mazmuni tanlangan nazariy modelga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Shu sababli emotsional intellektni tadqiq etishda nazariy model, konstruktning mazmuniy chegarasi, diagnostik vosita va empirik natijalarni talqin qilish o'rtasidagi metodologik muvofiqlik muhim shart sifatida belgilanadi.

Kalit so'zlar: emotsional intellekt, emotsiya, intellekt, qobiliyat modeli, aralash model, trait emotsional intellekt, emotsional axborot, emotsional regulyatsiya, shaxs, psixologik diagnostika, individual farqlar.

НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ ФЕНОМЕНА ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация. В статье представлен теоретико-сравнительный анализ основных научных подходов к изучению феномена эмоционального интеллекта. Особое внимание уделяется психологическому статусу эмоционального интеллекта как конструкта, его структурным компонентам, концептуальным границам и взаимосвязи теоретической модели с диагностическими процедурами. Сопоставляются модель способностей П. Сэловея, Дж.Д. Майера и Д.Р. Карузо, смешанные подходы Р. Бар-Она и Д. Гоулмана, концепция эмоционального интеллекта как черты личности К.В. Петридеса, а также модель Д.В. Люсина. Рассматриваются исследования узбекских психологов, посвященные эмоциональному интеллекту студентов,

профессиональному становлению и индивидуально-психологическим особенностям различных категорий испытуемых. Результаты анализа показывают, что эмоциональный интеллект не является конструктом, имеющим единое универсальное содержание: его трактовка существенно зависит от выбранной теоретической модели и способа операционализации. В связи с этим согласованность теоретической модели, содержательных границ конструкта, диагностического инструментария и интерпретации эмпирических результатов выступает важнейшим методологическим условием исследования эмоционального интеллекта.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, эмоция, интеллект, модель способностей, смешанная модель, эмоциональный интеллект как черта личности, эмоциональная информация, эмоциональная регуляция, личность, психологическая диагностика, индивидуальные различия.

SCIENTIFIC APPROACHES TO THE STUDY OF THE PHENOMENON OF EMOTIONAL INTELLIGENCE

Abstract. This article presents a theoretical and comparative analysis of the major scientific approaches to the study of emotional intelligence. Particular attention is paid to the psychological status of emotional intelligence as a construct, its structural components, conceptual boundaries, and the relationship between theoretical models and diagnostic procedures. The ability model developed by P. Salovey, J.D. Mayer and D.R. Caruso, the mixed approaches associated with R. Bar-On and D. Goleman, K.V. Petrides' trait emotional intelligence concept, and D.V. Lyusin's model are compared in terms of their theoretical content and methodological foundations. The article also reviews research conducted by Uzbek psychologists on emotional intelligence, including studies focusing on students, professional development, and individual psychological characteristics of different groups. The findings demonstrate that emotional intelligence cannot be regarded as a construct with a single universally accepted meaning, since its conceptual content depends considerably on the theoretical framework and operationalization employed. Therefore, consistency between the theoretical model, conceptual boundaries of the construct, diagnostic instrument, and interpretation of empirical findings should be considered a fundamental methodological requirement in emotional intelligence research.

Keywords: emotional intelligence, emotion, intelligence, ability model, mixed model, trait emotional intelligence, emotional information, emotion regulation, personality, psychological assessment, individual differences.

Kirish. Zamonaviy psixologiya fanida insonning intellektual imkoniyatlarini o‘rganish an’anaviy ravishda kognitiv jarayonlar, tafakkur, xotira, idrok va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini tadqiq etish bilan bog‘liq bo‘lib kelgan.

Biroq inson xulq-atvorining murakkabligi shuni ko‘rsatadiki, aqliy faoliyatni faqat kognitiv jarayonlar doirasida tushuntirish yetarli emas. Shaxsning kundalik hayotdagi qarorlari, shaxslararo munosabatlari, kasbiy faoliyati va ijtimoiy moslashuvida emotsional jarayonlarni anglash, ularni tartibga solish hamda boshqa kishilarning emotsional holatini to‘g‘ri baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu ehtiyoj emotsiya va intellekt o‘rtasidagi munosabatni ilmiy jihatdan o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirdi.

Emotsional intellekt tushunchasi aynan shu ilmiy izlanishlar natijasida psixologiyaning dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur tushuncha dastlab emotsional axborotni idrok etish, farqlash va undan fikrlash hamda xatti-harakatni boshqarishda foydalanish imkoniyatlari bilan bog‘langan bo‘lsa, keyingi yillarda uning mazmuni turli nazariy maktablar tomonidan sezilarli darajada kengaytirildi. Natijada emotsional intellekt bir tomondan maxsus aqliy qobiliyat, ikkinchi tomondan shaxsning emotsional va ijtimoiy kompetensiyalari majmui, yana bir yondashuvda esa emotsiyalarga oid o‘zini o‘zi idrok etish va individual dispozitsiyalar tizimi sifatida talqin qilina boshlandi.

Muammoning dolzarbligi O‘zbekiston ta’lim tizimining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari bilan ham bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim oluvchilarning nafaqat bilim va ko‘nikmalarini, balki ularning shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlarini rivojlantirishga oid talablar belgilangan [1]. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida esa yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifalardan biri sifatida ko‘rsatilgan [2]. Mazkur vazifalar shaxsning intellektual salohiyati bilan bir qatorda o‘z faoliyatini, emotsional holatini va shaxslararo munosabatlarini samarali boshqarish imkoniyatlarini o‘rganishni ham dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Emotsional intellektning ilmiy konseptualizatsiyasida P. Salovey va J.D. Mayerning 1990-yilda e’lon qilingan tadqiqoti alohida o‘rin tutadi. Olimlar emotsional intellektni o‘zining va boshqa kishilarning his-tuyg‘ulari hamda emotsiyalarini kuzatish, ularni farqlash va olingan emotsional axborotdan tafakkur hamda xatti-harakatlarni boshqarishda foydalanish bilan bog‘liq qobiliyat sifatida izohlaganlar [3, 189-b.]. Ushbu qarash emotsiyani insonning oqilona faoliyatiga qarama-qarshi hodisa sifatida emas, balki qaror qabul qilish va xulq-atvorni tartibga solishda muayyan axborot qiymatiga ega psixologik hodisa sifatida ko‘rishga imkon berdi.

Keyingi tadqiqotlar emotsional intellektning nazariy mazmunini yanada takomillashtirdi. J.D. Mayer, P. Salovey va D.R. Caruso emotsional intellektni emotsiyalar hamda emotsiyaga daxldor stimullar haqidagi murakkab axborotni qayta ishlash bilan bog‘liq aqliy qobiliyat sifatida aniqlashtirdilar [4, 503–517-b.]. R. Bar-On va D. Goleman bilan bog‘liq yondashuvlarda esa emotsional intellekt tushunchasiga ijtimoiy kompetensiyalar, moslashuvchanlik, stressni boshqarish va

shaxslararo munosabatlar kabi komponentlar ham kiritildi [5; 7]. K.V. Petrides tomonidan ishlab chiqilgan trait emotsional intellekt konsepsiyasi esa masalani shaxs psixologiyasi nuqtayi nazaridan ko‘rib, emotsiyalarga oid o‘zini o‘zi idrok etish va dispozitsiyalarni markazga qo‘ydi [6].

Rus psixologiyasida D.V. Lyusin tomonidan taklif etilgan model emotsional intellektni o‘z va boshqa kishilarning emotsiyalarini tushunish hamda boshqarish imkoniyatlari bilan bog‘laydi [9]. O‘zbekistonda ham ushbu muammo bo‘yicha tadqiqotlar izchil olib borilmoqda. Xususan, B.N. Turakulov, J.R. Shukurov, Sh.R. Mirzayeva, M. Xudoyberganova va S. Xazova tomonidan olib borilgan izlanishlarda emotsional intellektning nazariy asoslari, individual-tipik xususiyatlari, kasbiy faoliyat va ta’lim jarayonidagi namoyon bo‘lish jihatlari yoritilgan [11–15].

Shu nuqtayi nazardan, emotsional intellektning turli ilmiy maktablarda qanday mazmun kasb etishini qiyosiy o‘rganish, ayniqsa, nazariy model bilan diagnostik vosita o‘rtasidagi muvofiqlikni aniqlash dolzarb ilmiy vazifalardan biridir.

Maqolaning maqsadi emotsional intellekt fenomenini o‘rganishga doir asosiy ilmiy yondashuvlarni nazariy-qiyosiy jihatdan tahlil qilish, ularning konseptual farqlarini aniqlash hamda emotsional intellektni tadqiq etishda nazariy model va diagnostik vosita o‘rtasidagi metodologik muvofiqlikning ahamiyatini asoslashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-qiyosiy xarakterga ega bo‘lib, unda emotsional intellekt fenomenining turli psixologik konsepsiyalardagi mazmuni va tarkibiy xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyoslash, differensiallashtirish, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tahlilning asosiy tamoyili emotsional intellektni faqat umumiy ta’riflar orqali emas, balki “nazariy konstrukt – tarkibiy tuzilma – diagnostik operasionalizatsiya – empirik talqin” o‘zaro aloqasi doirasida ko‘rib chiqishdan iborat bo‘ldi.

Tadqiqot manbalari bir necha guruhga ajratildi. Birinchi guruhga emotsional intellekt konsepsiyasining shakllanishiga asos bo‘lgan P. Salovey, J.D. Mayer, D.R. Caruso, R. Bar-On, K.V. Petrides va D.V. Lyusinning fundamental ishlari kiritildi. Ikkinchi guruhni emotsional intellekt modellarini qiyoslash va ularni o‘lchashning metodologik muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlar tashkil etdi. Xususan, P.J. O’Connor va hammualliflarning emotsional intellekt o‘lchovlariga bag‘ishlangan tanqidiy sharhi nazariy modellar va diagnostik vositalar o‘rtasidagi farqlarni aniqlashda muhim manba bo‘ldi [8]. Uchinchi guruhga O‘zbekiston psixologiyasida emotsional intellekt muammosini o‘rgangan tadqiqotchilarning ilmiy ishlari kiritildi. To‘rtinchi guruhni tadqiqot muammosining ta’limiy va ijtimoiy dolzarbligini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar tashkil etdi.

Nazariy yondashuvlar beshta asosiy mezon asosida qiyoslandi: emotsional intellektning psixologik maqomi; konstrukt tarkibiga kiritiladigan asosiy

komponentlar; emotsional axborotning funksional o‘rni; diagnostik yondashuv; emotsional intellektning boshqa shaxs xususiyatlari va kompetensiyalaridan konseptual chegaralanishi.

Natijalar va muhokama

Emotsional intellektning qobiliyat modeli

Emotsional intellektning ilmiy tadqiqotida eng muhim yo‘nalishlardan biri P. Salovey va J.D. Mayer tomonidan ishlab chiqilgan qobiliyat modelidir. Dastlabki konsepsiyada emotsional intellekt shaxsning o‘z va boshqalarning emotsiyalarini kuzatishi, ularni farqlashi va mazkur axborotdan tafakkur hamda xatti-harakatni boshqarishda foydalanishi bilan bog‘langan [3, 189-b.]. Keyingi ishlarda ushbu yondashuv yanada aniqlashtirilib, emotsional intellekt emotsional axborotni qayta ishlashga oid maxsus aqliy qobiliyat sifatida talqin qilindi [4, 503-b.].

Qobiliyat modelining muhim jihati shundan iboratki, unda emotsional intellekt umumiy ijobiy shaxs sifatlari yig‘indisi sifatida emas, balki emotsional axborot bilan ishlashga imkon beradigan muayyan aqliy imkoniyatlar tizimi sifatida qaraladi. Shu sababli optimizm, o‘ziga ishonch, kommunikativ faollik yoki umumiy ijobiy kayfiyatning yuqori darajasi avtomatik ravishda emotsional intellektning yuqori darajasini anglatmaydi. Ushbu model emotsional axborotni idrok etish, emotsiyalarni tushunish, ularning tafakkurga ta’sirini hisobga olish va emotsiyalarni boshqarish bilan bog‘liq qobiliyatlarni markazga qo‘yadi.

Qobiliyat modelining yana bir muhim jihati uning diagnostik tamoyilida namoyon bo‘ladi. Agar tadqiqot predmeti shaxsning emotsional mazmundagi topshiriqlarni real bajarish qobiliyati bo‘lsa, bunday qobiliyatni aniqlashda maksimal bajarishga asoslangan test topshiriqlari metodologik jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda respondentning “men emotsiyalarni yaxshi tushunaman” degan subyektiv bahosi emas, balki muayyan emotsional vazifani qanchalik to‘g‘ri hal qila olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Aralash yondashuvlarning mazmuni

Emotsional intellektni kengroq psixologik konstrukt sifatida talqin qiluvchi yondashuvlar R. Bar-On va D. Goleman nomlari bilan ko‘proq bog‘lanadi. R. Bar-On emotsional-ijtimoiy intellektni shaxsning o‘zini tushunishi va ifodalashi, boshqalarni tushunishi, shaxslararo munosabatlarni o‘rnatishi, kundalik talab va bosimlarga moslashishi hamda faoliyat davomida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni boshqarishiga ta’sir ko‘rsatuvchi o‘zaro bog‘liq emotsional va ijtimoiy kompetensiyalar, ko‘nikmalar va fasilitatorlar majmui sifatida izohlaydi [5, 14-b.].

Bar-On modelida intrapersonal va interpersonal sohalar bilan bir qatorda stressni boshqarish, moslashuvchanlik va umumiy kayfiyat kabi yo‘nalishlarning ham mavjudligi emotsional intellekt tushunchasining kengayganini ko‘rsatadi. Mazkur model shaxsning kundalik hayot va ijtimoiy muhitga moslashish imkoniyatlarini kompleks baholashga xizmat qilishi bilan amaliy ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, konstrukt tarkibining kengayishi emotsional intellektning o‘zini boshqa ijobiy shaxs xususiyatlaridan ajratish masalasini murakkablashtiradi.

D. Goleman yondashuvida emotsional intellekt, ayniqsa, kasbiy faoliyat va ijtimoiy samaradorlik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Uning “Working with Emotional Intelligence” asarida emotsional intellekt bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish, ularning ish faoliyati va shaxslararo munosabatlardagi ahamiyati masalalariga katta e’tibor qaratiladi [7]. Ushbu yondashuvda o‘z emotsiyalarini anglash, ularni boshqarish, ijtimoiy vaziyatlarni tushunish va munosabatlarni samarali tashkil etish kabi kompetensiyalar bir butun tizim sifatida qaraladi.

Shunday qilib, aralash yondashuvlarning asosiy afzalligi emotsional intellektni shaxs faoliyatining real sharoitlari bilan bog‘liq holda kengroq ko‘rib chiqish imkoniyatidir. Biroq mazkur yondashuvda emotsional intellekt, ijtimoiy kompetensiya, moslashuvchanlik va boshqa ijobiy shaxs sifatlari o‘rtasidagi chegaralarni aniq belgilash alohida metodologik ahamiyat kasb etadi.

Trait emotsional intellekt konsepsiyasi

K.V. Petrides tomonidan rivojlantirilgan trait emotional intelligence konsepsiyasi emotsional intellekt muammosini shaxs psixologiyasi nuqtayi nazaridan o‘rganadi. K.V. Petrides, R. Pita va F. Kokkinaki trait EI ni emotsiyalarga oid o‘zini o‘zi idrok etish va dispozitsiyalarni kompleks tarzda ifodalovchi konstrukt sifatida tavsiflaydilar [6, 273-b.]. Bu yondashuvda insonning emotsional vaziyatlarda qanday obyektiv natijaga erishishidan ko‘ra, o‘z emotsional imkoniyatlarini qanday baholashi va emotsiyalar bilan bog‘liq vaziyatlarda odatda qanday munosabat bildirishga moyilligi muhim hisoblanadi.

Mazkur farq diagnostikada ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Trait EI odatda o‘zini o‘zi baholashga asoslangan so‘rovnomalar orqali o‘lchanadi. Demak, respondentning emotsional faoliyatga oid subyektiv tasavvurlari, odatiy reaksiyalari va dispozitsiyalari tadqiqotning asosiy empirik manbasini tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan, trait emotsional intellektni qobiliyat modelining oddiy so‘rovnoma shakli sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. U boshqa nazariy asosga ega bo‘lgan va boshqa psixologik mazmunni o‘lchaydigan konstrukt sifatida qaralishi lozim.

P.J. O’Connor va hammualliflarning ta’kidlashicha, emotsional intellektni o‘lchashga mo‘ljallangan turli vositalar bir xil nom ostida qo‘llanayotgan bo‘lsa-da, ular ko‘pincha mazmunan turli konstruktlarni baholaydi [8]. Shu sababli diagnostik natijalarni talqin qilishda metodikaning qaysi nazariy modelga asoslanganligi albatta hisobga olinishi kerak.

D.V. Lyusin konsepsiyasida emotsional intellekt

Rus psixologiyasida emotsional intellekt muammosining rivojlanishida D.V. Lyusinning konsepsiyasi muhim o‘rin tutadi. Olim emotsional intellektni o‘z va boshqa kishilarning emotsiyalarini tushunish hamda boshqarish imkoniyatlari bilan bog‘laydi [9, 29–36-b.]. Mazkur modelda emotsional jarayonlarning yo‘nalishi

muhim mezon sifatida olinib, o‘z emotsiyalariga va boshqa kishilarning emotsiyalariga qaratilgan jarayonlar o‘zaro farqlanadi.

D.V. Lyusin konsepsiyasining amaliy ifodasi EmIn metodikasida o‘z aksini topgan. Ushbu metodika ichki shaxsiy va shaxslararo emotsional intellektni, shuningdek, emotsiyalarni tushunish va boshqarish bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarni aniqlash imkonini beradi [10, 3–22-b.]. Mazkur modelning o‘ziga xos jihati shundaki, nazariy jihatdan emotsiyalarni tushunish va boshqarish imkoniyatlariga urg‘u berilsa-da, uning empirik o‘lchovi o‘zini o‘zi baholashga asoslangan so‘rovnoma shaklida amalga oshiriladi.

Bu holat nazariy konstrukt bilan uning diagnostik operasionalizatsiyasi o‘rtasidagi munosabatni alohida hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Ya’ni, metodika orqali olingan natijalar respondentning o‘z emotsional imkoniyatlarini qanday baholashini aks ettirishi mumkin va ularni avtomatik tarzda obyektiv emotsional qobiliyatning bevosita ko‘rsatkichi sifatida talqin qilish metodologik jihatdan ehtiyotkorlikni talab etadi.

O‘zbekistonda emotsional intellekt muammosining o‘rganilishi

O‘zbek psixologiyasida emotsional intellekt masalasiga qiziqish so‘nggi yillarda sezilarli ravishda ortib bormoqda. Mahalliy tadqiqotlarda xorijiy va rus psixologiyasida shakllangan nazariy modellarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda, emotsional intellektning talabalik davri, kasbiy shakllanish va muayyan faoliyat turlaridagi namoyon bo‘lish xususiyatlarini empirik o‘rganishga e’tibor kuchaymoqda.

B.N. Turakulovning tadqiqotlarida emotsional intellekt muammosi nazariy va individual-tipik xususiyatlar nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Muallifning 2020-yilda e’lon qilingan ishida emotsional intellektning psixologik mohiyati va unga doir mavjud nazariy qarashlar umumlashtirilgan [11, 99–104-b.]. Keyingi monografik tadqiqotida esa talabalar emotsional intellektining individual-tipik xususiyatlariga alohida e’tibor qaratilgan [12].

J.R. Shukurov tadqiqotlarida emotsional intellekt bo‘lajak ofitserlarning kasbiy shakllanishi kontekstida o‘rganilib, uning harbiy-kasbiy faoliyat uchun ahamiyatli psixologik jihatlari tahlil qilingan [13]. Sh.R. Mirzayevaning tadqiqotlari esa tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabalarida emotsional intellektning psixologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan [15]. Bu tadqiqotlar emotsional intellektning turli kasbiy yo‘nalishlarda bir xil mazmunda namoyon bo‘lmasligi, uning rivojlanishi va funksional ahamiyati faoliyat sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

M. Xudoyberganova va S. Xazova tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa emotsional intellekt konsepsiyasining tarixiy shakllanishi va asosiy nazariy modellari qiyosiy yoritilgan. Unda R. Bar-On, J.D. Mayer, P. Salovey, D. Goleman va D.V. Lyusin qarashlari umumlashtirilib, zamonaviy tadqiqot yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan [14, 206–208-b.].

Mahalliy ilmiy izlanishlarning umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda emotsional intellekt tadqiqotlari dastlab xorijiy nazariy konsepsiyalarni o‘rganish va umumlashtirishdan boshlangan bo‘lsa, hozirgi bosqichda turli ijtimoiy va kasbiy guruhlarda uning individual-psixologik xususiyatlarini empirik aniqlashga yo‘naltirilmoqda. Bu esa kelgusida milliy psixologik muhit va madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda emotsional intellektning namoyon bo‘lish mexanizmlarini chuqurroq tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Emotsional intellektga doir asosiy ilmiy yondashuvlarning qiyosiy tavsifi

Ilmiy yondashuv	**Emotsional intellektning psixologik maqomi**	**Asosiy mazmuni**	**Asosiy diagnostik tamoyil**
Salovey–Mayer–Caruso	Aqliy qobiliyat	Emotsional axborotni idrok etish, tushunish va undan tafakkur hamda xatti-harakatni boshqarishda foydalanish	Maksimal bajarishga asoslangan topshiriqlar
Bar-On	Emotsional-ijtimoiy kompetensiyalar tizimi	Intrapersonal va interpersonal kompetensiyalar, moslashuvchanlik, stressni boshqarish, umumiy kayfiyat	O‘zini o‘zi baholash
Goleman	Emotsional va ijtimoiy kompetensiyalar	O‘zini va boshqalarni anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy munosabatlar va rivojlantiriladigan ko‘nikmalar	Kompetensiyalarni baholash
Petrides	Shaxs xususiyati – trait EI	Emotsiyalarga oid o‘zini o‘zi idrok etish va individual dispozitsiyalar	O‘zini o‘zi baholash
Lyusin	Emotsiyalarni tushunish va boshqarish imkoniyatlari	O‘z va boshqalarning emotsiyalarini tushunish va boshqarish	EmIn so‘rovnomasi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mazkur yondashuvlar o‘rtasidagi asosiy tafovut faqat emotsional intellekt tarkibiga kiritilgan komponentlarning soni bilan belgilanmaydi. Eng muhim farq emotsional intellektning o‘zi qanday psixologik hodisa sifatida qabul qilinishidadir. Qobiliyat modelida emotsional axborotni qayta ishlash samaradorligi markaziy o‘ringa qo‘yilsa, trait modelida shaxsning emotsional sohadagi o‘zini o‘zi idrok etishi va odatiy dispozitsiyalari asosiy ahamiyatga ega. Aralash yondashuvlarda esa emotsional jarayonlar bilan bir qatorda ijtimoiy kompetensiya, moslashuvchanlik va shaxs faoliyatining boshqa jihatlari ham birlashtiriladi.

Shu sababli emotsional intellektni tadqiq etishda “qaysi metodika qo‘llanilgan?” degan savolning o‘zi yetarli emas. Avvalo, “ushbu metodika qanday nazariy konstruktni o‘lchaydi?” degan savolga javob berish talab etiladi. Bir xil

nom bilan ataluvchi metodikalarning turli psixologik mazmunni o‘lchashi mumkinligi emotsional intellekt tadqiqotlaridagi eng muhim metodologik masalalardan biridir.

Masalan, o‘zini o‘zi baholashga asoslangan trait EI metodikasi orqali olingan yuqori natijani shaxsning emotsional vazifalarni obyektiv ravishda yuqori aniqlikda bajarish qobiliyati sifatida talqin qilish mumkin emas. Aksincha, qobiliyat testida yuqori natijaga erishish ham shaxsning kundalik vaziyatlarda o‘z emotsional xulqini qanday baholashi haqida to‘liq ma’lumot bermaydi. Demak, empirik natijani mazmunan to‘g‘ri talqin qilish uchun diagnostik vositaning nazariy asosini bilish zarur.

Mazkur masalani quyidagi metodologik ketma-ketlik orqali ifodalash mumkin:

Nazariy model → konstruktning mazmuniy chegarasi → diagnostik vosita → empirik natija → ilmiy talqin.

Ushbu ketma-ketlikdagi har bir bosqich o‘zaro muvofiq bo‘lgan taqdirdagina tadqiqot natijasining ilmiy asoslanganligi ta’minlanadi. P.J. O’Connor va hammualliflarning tahlili ham emotsional intellektni o‘lchashga mo‘ljallangan ko‘plab vositalar turli nazariy konstruktlarni baholashini ko‘rsatadi [8]. Shu bois emotsional intellekt tadqiqotlarida terminologik bir xillikni mazmuniy bir xillik bilan tenglashtirmaslik lozim.

Xulosa. Emotsional intellekt fenomeniga doir asosiy ilmiy yondashuvlarning nazariy-qiyosiy tahlili ushbu tushunchaning psixologiyada ko‘p qirrali va murakkab konstrukt sifatida shakllanganini ko‘rsatdi. Uning turli ilmiy maktablarda turlicha talqin qilinishi, avvalo, emotsional intellektning psixologik maqomi va konstrukt chegaralariga bo‘lgan yondashuvlarning farqlanishi bilan izohlanadi.

P. Salovey, J.D. Mayer va D.R. Caruso tomonidan ishlab chiqilgan qobiliyat modelida emotsional intellekt emotsional axborotni idrok etish, tushunish va undan fikrlash hamda xatti-harakatni boshqarishda foydalanish bilan bog‘liq aqliy qobiliyat sifatida namoyon bo‘ladi. R. Bar-On va D. Goleman yondashuvlarida esa emotsional intellektning mazmuni kengayib, unga emotsional va ijtimoiy kompetensiyalar, moslashuvchanlik, stressni boshqarish hamda kasbiy faoliyatga daxldor ko‘nikmalar ham kiritiladi. K.V. Petrides konsepsiyasida esa emotsional intellekt shaxsning emotsiyalarga oid o‘zini o‘zi idrok etishi va individual dispozitsiyalari bilan bog‘liq trait sifatida talqin qilinadi.

D.V. Lyusin tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya rus psixologiyasida emotsional intellektning o‘z va boshqa kishilarning emotsiyalarini tushunish hamda boshqarish bilan bog‘liq jihatlarini tizimlashtirishga xizmat qildi. Mazkur modelning EmIn metodikasi orqali operacionalizatsiya qilinishi emotsional intellektni empirik o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu bilan birga, nazariy konstrukt bilan uni o‘lchash usuli o‘rtasidagi farqni hisobga olish zarurligini ham ko‘rsatadi.

O‘zbek psixologiyasida emotsional intellektga oid tadqiqotlarning rivojlanishi nazariy konsepsiyalarni o‘rganishdan uning talabalar, bo‘lajak ofitserlar, tibbiyot talabalari va boshqa faoliyat subyektlarida namoyon bo‘lish xususiyatlarini empirik tadqiq etish tomon siljib borayotganini ko‘rsatadi. Mazkur yo‘nalishning keyingi rivojida emotsional intellektning yosh, kasbiy, ijtimoiy-madaniy va individual-psixologik omillar bilan aloqadorligini aniqlash muhim ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Umuman olganda, emotsional intellektni o‘rganishda asosiy metodologik talab nazariy model, konstruktning mazmuniy chegarasi va diagnostik vositaning o‘zaro muvofiqligini ta’minlashdan iborat. Bir xil termin ostida turli psixologik hodisalarni o‘lchash empirik natijalarni qiyoslash va umumlashtirishda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun kelgusidagi tadqiqotlarda emotsional intellektga beriladigan ta’rif, tanlanadigan nazariy model, diagnostik metodika va natijalarni talqin qilish mezonlari oldindan aniq belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son. 3, 34-moddalar // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
3. Salovey P., Mayer J.D. Emotional Intelligence // Imagination, Cognition and Personality. – 1990. – Vol. 9, No. 3. – P. 185–211. DOI: 10.2190/DUGG-P24E-52WK-6CDG.
4. Mayer J.D., Salovey P., Caruso D.R. Emotional Intelligence: New Ability or Eclectic Traits? // American Psychologist. – 2008. – Vol. 63, No. 6. – P. 503–517. DOI: 10.1037/0003-066X.63.6.503.
5. Bar-On R. The Bar-On Model of Emotional-Social Intelligence (ESI) // Psicothema. – 2006. – Vol. 18, Suppl. – P. 13–25.
6. Petrides K.V., Pita R., Kokkinaki F. The Location of Trait Emotional Intelligence in Personality Factor Space // British Journal of Psychology. – 2007. – Vol. 98, No. 2. – P. 273–289. DOI: 10.1348/000712606X120618.
7. Goleman D. Working with Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 1998. – XI, 383 p.
8. O’Connor P.J., Hill A., Kaya M., Martin B. The Measurement of Emotional Intelligence: A Critical Review of the Literature and Recommendations for Researchers and Practitioners // Frontiers in Psychology. – 2019. – Vol. 10. – Article 1116. DOI: 10.3389/fpsyg.2019.01116.

9. Люсин Д.В. Современные представления об эмоциональном интеллекте // Социальный интеллект: теория, измерение, исследования / под ред. Д.В. Люсина, Д.В. Ушакова. – М.: Институт психологии РАН, 2004. – С. 29–36.

10. Люсин Д.В. Новая методика для измерения эмоционального интеллекта: опросник ЭмИн // Психологическая диагностика. – 2006. – № 4. – С. 3–22.

11. Turakulov B.N. Analysis of Psychological Theory of Emotional Intelligence // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, No. 3, Part II. – P. 99–104.

12. Turakulov B.N. Talabalar emotsional intellektining individual-tipik xususiyatlari: monografiya. – Toshkent: FIRDAVS-SHOH, 2023. – 112 b. – ISBN 978-9910-754-09-8.

13. Shukurov J.R. Bo‘lajak ofitserlarda emotsional intellekt rivojlanishining psixologik jihatlari: psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022.

14. Xudoyberganova M., Xazova S. Emotsional intellektni o‘rganishga nazariy yondashuvlar: tarix, hozirgi holat, tadqiqot istiqbollari // O‘zMU xabarlari. – 2024. – № 1/8. – B. 206–208. DOI: 10.69617/nuuz.v1i1.8.3215.

15. Mirzayeva Sh.R. Tibbiyot oliy o‘quv yurti talabalarida emotsional intellektning psixologik xususiyatlari: psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024. – 56 b.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(1)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694